


O`zbekiston Respublikasi
Xalq Ta`lim Vazirligi
Namangan viloyati
Xalq ta`limi Boshqarmasi
Yangiqo`rg'on XTMFMTTEBga qarashli
23-umumiyl o`rta ta`lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Axmedova Nargizan
O'qish fanidan yozgan

DARS ISHLANMASI



Ushbu dars ishlanma Yangiqo'rg'on tumanidagi 23-sonli umumiyl o'rta ta'lim makkabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Nargiza Axmedovaning ko'p yillik ish faoliyati va tajribasi asosida yozildi .

Muallif : N.Axmedova

-23-sonli umumiyl o'rta ta'lim makkabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi .

Muxarrir : I.Rajaboyev

-23-sonli umumiyl o'rta ta'lim makkabining informatika fani o'qituvchisi .

Taqrizchilar :

D.Sayidvaliyev -

Tuman XTMFMTTEB
boshlang'ich sinf metodisti .

Z.Qirg'izboyeva -

-40-sonli umumiyl o'rta ta'lim makkabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi .

S.Umarova -

-22-sonli umumiyl o'rta ta'lim makkabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi .

Ushbu dars ishlanma tuman XTMFMTTE bo'limi metodika kengashining 2015 yil _____dagi ____- sonli qarori bilan foydalanishga tavsiya etildi

**Ajdodlarimiz – faxrimz, g`ururimiz.
Biz – buyuklar avlodi.**

Darsning mavzusi : G`azal mulkining sultoni .

Darsning maqsadi:

- a) Ta`limiy :** O`quvchilarni shoir hayoti va ijodi .U qoldirgan boy meros hisoblanmish nodir qimmatga ega asarlari va hikmatli so`zlari bilan tanishtirish.
- b) Tarbiyaviy :** Yosh avlodni ulug` ajdodlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash.Ular qalbiga milliy va umuminsoniy qadiryatlar ,ezgulik va insonparvarlik tuyg`ularini singdirish.Ong va madaniyatni shakillantirish.

Dars uslubi : Noan`anaviy , suhbat.Erkin fikrlash

Dars jihizi : Alisher Navoiy portreti,shoir hayoti va ijodi haqida ma`lumot beruvchi bukletlar va texnik vositalar.Boshqotirma, Rebus.Elektron darslik.

Darsning rivojlantiruvchi: Vatanni sevishga , ona tabiatga muhabbatli bo`lishga chorlash .

I.Tashkiliy qism :


Ma`naviy daqiqa o`tkaziladi :

- 1 . Hozir qaysi fasl ?**
- 2 . Qish fasliga kiruvchi oylar nomlarni nomma-nom ayting ?**
- 3.2015-yil qanday nom bilan ataladi ?**



4. “ Vatan –bu ”, she`rining muallifi kim ?

5. Sizning vataningiz qayer ?



6 . Vatan nima o`zi ?

7 . Buyuk ajodolarimiz haqida nimalarni bilib oldingiz ?

II. Uy vazifasini so`rab va baholash :

O`tilgan darsdagi “Amir Temur o`gitlari” mavzusi asosida savol javob o`tkazildi .



A Savollar :

1. Amir Temur bobomiz ona yurti uchun qanday xizmatlar qilgan?
2. Amir Temurning uzugida qanday so`z hamisha yarqirab turgan?
3. Amir Temur o`gitlaridan qaysilarini bilasiz ?
4. Munajjim bobomiz kim?

III. O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

B O SH Q O T I R M

| | | | | | | | | |
|---|----------|----------|-----------|-----------|----------|----------|----------|----------|
| 1 | | I | | g' | b | | k | |
| 2 | t | | g' | | l | g | n | |
| 3 | | z | b | k | | s | t | n |
| 4 | b | | y | k | l | | r | |
| 5 | V | | t | | n | | | |

1.Munajjim Bobomiz . 2 Dunyoga kelishni bildiruvchi so`z .
3.Vatanimiz nomi.

3.4 va 5. ikkinchi dars mavzusi.

O`quvchilar javobiga qarab rag`batlantiriladi.

4. YANGI MAVZU BAYONI .

Alisher Navoiy portreti asosida yangi mavzu bayon etiladi.

Mavzu doskaga yoziladi : G`AZAL MULKINING SULTONI.



Bobomiz Alisher Navoiy buyuk shoir , olim va davlat arbobi bo`lgan. Besh-olti yoshidayoq ko`p she`rlar yod olgan .

Bobomiz bizga juda ko`p asarlar yozib qoldirgan .Bu ulug` zot shoirlarning sultonı bo`lgan. Shoirning hayoti va ijodi haqida tushuncha berish.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tug`ilgan. Uning otasi G`iyosiddin Kichkina saroyda ishchi bo`lgan , Onasi shaxzodalarga enagalik qilgan.Otasi farzandini tarbiyasiga e`tiborli bo`lgan. SHoir umri davomida ko`plab asarlar, g`azallar ruboilar, hikmatli so`zlar yozib qoldirgan . O`quvchilardan shoir yozgan g`azal va ruboilaridan , hikmatli so`zlaridan so`rash .

Boshni fido ayla ato qoshig`a ,
Jismni qil sadqa ano boshig`a .
Tun-kunungga aylagali nur fosh ,
Birisin Oy ayla , birisin Quyosh .

G`urbatda g`arib shodmon bo`lmas emish ,
El anga shafiq shafiq mehribon bo`lmas emish .
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa ,
Bulbulg`a tikondek oshiyon bo`l mas emish .

Oz-oz o`rganib dono bo`lur ,
Qatra-qatra yig`ilib daryo bo`lur .

Odamiy ersang demagil odami,
Oniki yo`q xalq g`amidin g`ami.

Elektron darslik yordamida shoir hayoti haqida tushuncha berish .


Alisher Navoiyning hikmatli so`zlari :

BILMAGANNI SO`RAB O`RGANGAN OLIM ,

ORLANIB SO`RAMAGAN O`ZIGA ZOLIM .

Oz- oz o`rganib dono bo`lur ,
Qatra-qatra yig`ilib daryo bo`lur
Yaxshilikni bilmasang, yaxshilarga qo`shil .


Dam olish daqiqasi rebus yechish



Rebus asosida yechilgan she`rni o`quvchilardan so`rash

B O S H Q O T I R M A

Quyida berilgan mevalar rasimidan foydalanib boshqotirmani bajartirish .



5.Yangi mavzuni mustahkamlash :

Mavzu : yuzasidan savollarga javob olish

1.Alisher Navoiy haqida nimalar bilib oldingiz ?

2. Alisher Navoiy aytgan hikmatli so`zlaridan ayting ?

Buyuk allomaga atab yozilgan she`rlardan so`rash .

O'quvchi : Hirot tuprog`ida voyaga yetgan ,
“Qush tili ” yo``llarin munavvar etgan .
Yillar to`zonida sog` omon o`tgan ,
Alisher bobomlar, ulug` bobomlar .

O'quvchi : “Hamsa”si ko`ngilni shamdek yoritgan
Tilimiz ko`rkam, boy etgan
Yillar to`zonidan sog`-omon etgan
Mag`rigu mashriq ham iftixor etgan
Alisher bobomlar , qutlug` qadamlar

O'quvchi : Dostonlari chiqmagan yoddan
So`rang Majnun Qaysdan , Farxoddan
Layli Shirin qaddi shamshoddan
Navoiy bobomlar buyuk odamlar

O`quvchilarni javob va ishtiroklari bo`yicha rag`batlantirib , baholanadi.

6.UYGA VAZIFA : Mavzuni o`qib kelish, hikmatli so`zlarni yod olish,savollarga javob qaytarish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1. Boshlang'ich ta'lif jurnali 4 – 8 - soni 2014 - yil***
- 2. Ta'lif taraqqiyoti jurnali 5 – soni 2014 – yil***
- 3. O'qish kitobi 1- sinf 2014-yil T.G'affarova ,
G.Eshturdiyeva .***
- 4. Ziyonet – Kitob .uz***

T a q r i z

Ushbu dars ishlanma o'quv dasturiga , DTS talablariga mos ravishda yozilgan . Bu dars ishlanmadan boshlang'ich sinf o'qituvchilari matematika darsida foydalanishlari mumkin .

Dars ishlanmani “ Dars – muqaddas ” loyihasi asosida yaratilgan . Mavzu o'quvchi yoshiga , ongini hisobga olib , Buyuk allomalarни ko'rgazmalar asosida tushunarli bayon qilingan .

Mavzuda buyuk allomalarning hayoti va ijodi , ularning yozgan she'rlari , hikmatli so'zlari , dam olish daqiqalari , qulay usul bilan , ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda tushuntirilgan .

Ushbu dars ishlanmadan kam tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari me'todik qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin .

Taqriz yozuvchi :Boshlang'ich sinf o'qituvchisi R.Dadaboyeva